

Yurisprudensiya ta'lim yo'nalishiga oid savollar bazasi

1. "Odil sudlov — 2030" strategiyasining asosiy shiori nima va u qanday maqsadlarda ishlab chiqilgan?
2. 2030-yilga borib O'zbekiston sud tizimi qanday sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lishi kutilmoqda?
3. Yangi O'zbekiston sud hokimiyatining yangilangan qiyofasini shakllantirishga qaratilgan 6 ta ustuvor yo'nalish (ustun) nimalardan iborat?
4. "Xalqchil sud" tamoyili doirasida sud tizimining ochiqqligini ta'minlash uchun qanday choralar ko'zda tutilgan?
5. Sudyalarni odil sudlovga daxldor bo'lmagan vazifalardan ozod etish maqsadida qaysi yangi institut joriy etilmoqda?
6. "Sud ma'murchiligi" (Court Administration) institutining asosiy vazifalari nimalardan iborat bo'ladi?
7. 2028-yil 1-yanvardan boshlab sud apparati xodimlari bilan ishlash va raqamlashtirish jarayonlarini muvofiqlashtirish uchun qaysi tuzilma mas'ul bo'ladi?
8. Sudyalik lavozimiga tayinlashning muddatlari (5 yil, 10 yil va muddatsiz) qanday tartibda belgilangan?
9. 2027-yil 1-iyuldan boshlab qanday yangi sudlar (mejregional) tashkil etilishi belgilangan va ularning vakolatlari nimadan iborat?
10. Tuman va shaharlarda fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarni tashkil etishda qaysi mezonlar (aholi soni, ishlar hajmi va h.k.) inobatga olinadi?
11. Sud qarorlarini qayta ko'rish tizimida "taftish" tartibi qanday amalga oshiriladi?
12. "Xabeas korpus" instituti doirasida prokurorlardan sudlarga qanday vakolatlar (sanksiya berish va h.k.) o'tkazilgan?
13. Tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirish maqsadida "tergov sudyasi"ga qanday yangi vakolatlar berilishi ko'zda tutilgan?
14. "Obo'snovannoye podozreniye" (Prima Facie) standarti asosida shaxsni ushlab turishning qonuniyligini tekshirish tartibi qanday?
15. Sudga murojaat qilishda "yagona darcha" tamoyili qanday imkoniyatlarni taqdim etadi?
16. "Soddalashtirilgan sud hujjati" modelining mohiyati va uning fuqarolar uchun afzalliklari nimada?
17. Iqtisodiy sud ishlarinai yuritishda "iqtisodiy ishlarni proaktiv boshqarish" (Proactive Case Management) standarti nima?
18. Sudyalar oliy maktabi negizida tashkil etilgan Odil sudlov akademiyasining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
19. "Bo'lajak sudyani sudya o'qitadi" tamoyili ta'lim jarayonida qanday amalga oshiriladi?
20. Sudyalarning mustaqilligini ta'minlashda ularning moddiy-texnik ta'minoti va ijtimoiy himoyasi (uy-joy, ustamalar) qanday ahamiyatga ega?

21. Nima sababdan aynan huquqshunoslik kasbini tanladingiz va ushbu mutaxassislikning jamiyatdagi ijtimoiy ahamiyatini qanday tushunasiz?
22. Yurisprudensiya yo‘nalishida tahsil olib, kelajakda huquqning qaysi sohasida faoliyat yuritishni rejalashtiryapsiz va bu tanlovingiz mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga qanday mos keladi?
23. Huquqshunoslik kasbini tanlashingizga nima yoki kim turtki bo‘lgan?
24. Kelajakda huquqning qaysi sohasida (masalan, jinoyat, fuqarolik, korporativ) faoliyat yuritishni rejalashtiryapsiz va nima uchun?
25. Ushbu mutaxassislik bo‘yicha oliy ma‘lumot olish orqali qanday shaxsiy va kasbiy maqsadlarga erishmoqchisiz?
26. Sizningcha, jamiyatda huquqshunosning asosiy vazifasi nimadan iborat?
27. Huquqshunos kasbining boshqa kasblardan farqli ravishda ijtimoiy mas‘uliyati nimada deb bilasiz?
28. "Qonun ustuvorligi" tushunchasini qanday izohlaysiz va bu jarayonda yuristning o‘rni qanday?
29. Huquqshunoslik kasbi inson huquq va erkinliklarini himoya qilishda qanchalik muhim ahamiyatga ega?
30. Sizningcha, zamonaviy huquqshunos qanday shaxsiy fazilatlarga (masalan, odillik, xolislik, intizom) ega bo‘lishi lozim?
31. Murakkab huquqiy muammolarni hal qilishda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatingizni qanday baholaysiz?
32. Huquqshunos uchun notiqlik san‘ati va yozma nutq mahorati nima uchun zarur?
33. Kasbiy faoliyatingizda etik qoidalar va kasb odobnomasiga rioya qilishning ahamiyati nimada?
34. O‘zbekistonda yuridik ta‘lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida nimalarni bilasiz?
35. "Legal Tech" (yuridik texnologiyalar) va sun‘iy intellektning huquq sohasiga kirib kelishiga munosabatingiz qanday?
36. Nima uchun yurist o‘z ustida doimiy ishlashi va bilimlarini yangilab borishi shart deb o‘ylaysiz?
37. Raqamli huquq va kiberxavfsizlik sohalarida huquqiy tartibga solishning ahamiyati nimada?
38. Huquqshunoslik sohasida "nazariya va amaliyot uyg‘unligi" deganda nimani tushunasiz?
39. Sizningcha, huquqshunos korrupsiya va huquqbuzarliklarga qarshi kurashda qanday shaxsiy namuna ko‘rsatishi kerak?
40. Kelajakda Yangi O‘zbekistonning huquqiy tizimini rivojlantirishga qanday hissa qo‘shmoqchisiz?
41. Jinoyat kodeksining qonuniylik va odillik prinsiplari o‘rtasidagi farqni misollar bilan tushuntiring.
42. Insonparvarlik prinsipi asosida jazoni yengillashtiruvchi normalarning kengaytirilishi qanday maqsadlarni ko‘zlaydi?
43. Javobgarlikning muqarrarligi prinsipi deganda nimani tushunasiz?

44. Jinoyat qonunchiligining hudud bo'yicha amal qilishi (ekstraterritoriallik) qanday tartibga solinadi?
45. Qilmishning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotishi shaxsni javobgarlikdan ozod qilishga qanday asos bo'ladi?
46. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitusiyasiga ko'ra, davlatning huquqiy maqomi qanday belgilangan?
47. Konstitusiyaning oliy yuridik kuchi va to'g'ridan-to'g'ri amal qilishi deganda nima tushuniladi?
48. Inson huquq va erkinliklarini cheklashning konstitusiyaviy asoslari nimalardan iborat?
49. Shaxsni sud qarorisiz ushlab turishning eng ko'p muddati qancha qilib belgilangan?
50. Yangi tahrirdagi Konstitusiyada "Miranda qoidasi" (sukut saqlash huquqi) qanday aks etgan?
51. Mehnat sohasida kamsitish (diskriminasiya) deganda nima tushuniladi va nimalar kamsitish hisoblanmaydi?
52. Xodimni ishga qabul qilish rasmiylashtirilmagan bo'lsa-da, u amalda ishga tushirilgan bo'lsa, mehnat shartnomasi tuzilgan hisoblanadimi?
53. Mehnat sohasida kamsitish (diskriminasiya) deganda nima tushuniladi va nimalar kamsitish hisoblanmaydi?
54. Xodimni ishga qabul qilish rasmiylashtirilmagan bo'lsa-da, u amalda ishga tushirilgan bo'lsa, mehnat shartnomasi tuzilgan hisoblanadimi?
55. Dastlabki sinov muddati kimlarga nisbatan belgilanmaydi?
56. Dastlabki sinov muddatining eng ko'p muddati qancha va unga qaysi davrlar qo'shilmaydi?
57. Xodim o'z tashabbusi bilan mehnat shartnomasini bekor qilmoqchi bo'lsa, ish beruvchini qancha vaqt oldin ogohlantirishi kerak?
58. Yakka tartibdagi tadbirkor (YaTT) tomonidan xodimlarni ishga qabul qilishda buyruq chiqarish va mehnat daftarchasini yuritish shartmi?
59. Fuqarolik huquq va burchlari qanday asoslarga ko'ra vujudga keladi?
60. Fuqarolik huquqlarini himoya qilishning asosiy usullari qaysilar?
61. Fuqarolik huquqida "zarar" tushunchasiga nimalar kiradi va u qanday hajmda qoplanadi?
62. Fuqaroning to'la muomala layoqati qachon vujudga keladi va bu borada qanday istisnalar mavjud?
63. Yuridik shaxs tushunchasining asosiy belgilari va uning huquq layoqati qachon boshlanib, qachon tugaydi?